

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISI FAOLIYATI
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TAYANCH KOMPETENSIYALARINI
SHAKLLANTIRISH

Nosirova Dilfuza

Guliston davlat pedagogika 320nstitute o'qituvchisi

Ikromboyeva Dilnoza Iskandar qizi

Guliston davlat pedagogika 320nstitute talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15399543>

Anontatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyat samaradorligini oshirishda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish masalalari muhokama qilinadi. O'qituvchilarning tayanch kompetensiyalari, ularning pedagogik faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarurdir. Maqolada tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning usullari, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va o'qituvchilarning professional o'sishiga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, boshlang'ich sinf, tayanch kompetensiyalar, ta'lim samaradorligi , pedagogik faoliyat, zamonaviy ta'lim texnologiyalari.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы формирования ключевых компетенций для повышения эффективности деятельности будущих учителей начальных классов. Ключевые компетенции необходимы для успешной педагогической деятельности учителей. В статье обсуждаются методы развития ключевых компетенций, современные образовательные технологии и их влияние на профессиональный рост учителей.

Ключевые слова: будущий учитель, начальная школа, базовые компетенции, эффективность образования, педагогическая деятельность, современные образовательные технологии.

Abstract. This article discusses the issues of developing key competencies to enhance the effectiveness of future primary school teachers' activities. Key competencies are essential for teachers to succeed in their pedagogical work. The article explores methods for developing key competencies, modern educational technologies, and their impact on teachers' professional growth.

Keywords: future teacher, primary school, basic competencies, educational effectiveness, pedagogical activity, modern educational technologies.

Mamlakatimizda ta’limning uzlusizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilganligidan kelib chiqqan holda, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasbhunar ta’limida o‘qitiladigan umumta’lim fanlari mazmunining izchilligini ta’minalash maqsadida 6 ta tayanch kompetensiyalar hamda har bir o‘quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda xususiy kompetensiyalar belgilandi. “O’qituvchi o‘z bilim malakasini oshirish usullarini puxta egallamog‘i, mustaqil ishlashini o‘rganmog‘i lozim” – degan edi A. Jomiy. Mamlakatimizda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida uzlusiz ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi oliy ta’lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishni ta’minalashga qaratilgan islohotlar natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ2909-sonli, 2017 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5264-sonli qarorlari, 2018 yil 25 yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF5313-sonli Farmoni va boshqa ushbu sohaga tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘rni alohida hisoblanadi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi maktabga ilk qadam qo‘ygan o‘quvchilarning savodini chiqarishda, ularni shaxs sifatida shakllanishida muhim o‘rin egallaydi. Mazkur kompetensiyalarni boshlang‘ich sinflardan boshlab shakllantirish bugungi kunning asosiy talabi hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib oddiy savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish, orasta kiyinish, o‘quvchilarning olgan bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olish, o‘z-o‘zini boshqarish, jamoada o‘zini tutish, so‘z boyligini shakllantirish, yurish-turishda madaniy me’yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilishning dastlabki ko‘nikmalari shakllantiriladi. Kompetensiya (lot. compete – erishyapman, munosibman, loyiqlaman) – 1) muay-yan davlat organi (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba. O‘qituvchining kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar, ularning ulug‘lanishi Sharq mutafakkirlari Ismoil al-Buxoriy, Yusuf Xos Hojib, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Abdulla Avloniylarning asarlarida o‘z ifodasini topgan. Oliy ta’lim

muassasalarida o‘qituvchilarni tayyorlash muammolari respublikamiz va chet ellik mutaxassislar tomonidan bir qator adabiyotlarda yoritilgan. Oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini shakllantirish, o‘z-o‘zini boshqarish asosida o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish va kasbiy shakllanganlikni tashxislash masalalari M.A.Abdullajonova, O.A.Abdulina, A.A.Akbarov, X.A.Abduraxmanova, S.V.Safonovalarning tadqiqotlarida o‘rganilgan. O‘qituvchining kasbiy mahoratini tadqiq qilgan pedagog olimlar H.Abdukarimov, N.Azizxo‘jayeva, A.Aliyev, Yu.A.Axrarov, A.A.Verbitskiy, R.H.Jo‘rayev, B.R.Jo‘rayeva, J.G’. Yo‘ldoshev, S.M.Markova, G.M.Maxmutova, L.M.Mitina, A.G.Morozov, U.N.Nishonaliyev, M.Ochilov, B.Raximov, N.Saidahmedov, V.A.Slastyonin, O’.Tolipov, A.R.Xodjaboyev, A.A.Xoliqov, N.Shodihev, O.Haydarova, A.A.Hamidov, F.R.Yuzlikayevlarning ishlarida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahorati, ta’lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, talabalarning dunyoqarashlari, kasbiy va muloqot madaniyatini rivojlantirish yo‘llari va usullari, shuningdek, o‘qituvchilarni kasbiy tarbiyalash va tayyorlash muammolari tadqiq etilgan. O‘qituvchi shaxsini kasbiy tarbiyalashning psixologik va psixofiziologik jihatlari A.A.Bodalev, Ye.M.Ivanova, E.G’oziyev, M.G.Davletshin va boshqalarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. O‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammosi V.Adolf, I.Zimnyaya, A.Karabayeva, N.Kuzmina, N.Muslimov, Sh.Sharipov kabi qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. Adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, kompetentlik va kompetent yondashuvning mazmuni va ta’riflari, shuningdek, zamonaviy o‘qituvchining kasbiy sifatlari keng tadqiq etilgan. Lekin oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak kollej o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini tashxis qilish tizimi, bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion tayyorlash mazmuni, shakl, metod va vositalarining kasbiy kompetentlikni shakllantirishdagi imkoniyatlari yetarli darajada o‘rganilmagan. O‘qituvchining kasbiy tavsifnomasini tuzish, unga bo‘lgan talablarni aniqlash, shaxsni shakllantirishda tarbiyaning maqsad va vazifalari, qoidalari, ta’lim va tarbiya metodlari, uning qadimiy ildizlari (genezisi)ni aniqlashda Sharqning taniqli qomusiy olim va mutafakkirlarining hissalari kattadir. Buyuk Sharq mutafakkirlari AlXorazmiy, Al-Kindiy, Al-Forobiy, AlBeruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Hayyom, Sa’diy Sheraziyy, Mirzo Ulug‘bek, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar birinchilardan bo‘lib ta’lim metodlarini ilmiy asoslab berishdi. Anglash faoliyatini jadallashtirish, bilimlarni amaliyotda qo‘llash, bilimlarning tizimliligi, ketma-ketligi, mantiqiyligi, induksiya, tajriba, taqqoslash, kuzatish metodlari shular jumlasidandir.Ta’limda kompetensiyaviy yondoshuv deyilganda, o‘quvchilarning shaxsiy,

kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli xildagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish tushuniladi. Inson o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rmini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi, o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh kadr bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. Tayanch kompetensiyalarga esa axborotlar bilan ishslash kompetensiyasi, o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, milliy va umummadaniy kompetensiyasi, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalari kiradi.

Tayanch kompetensiyalar — bu shaxsning turli faoliyat turlarida muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlar to'plamidir. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun quyidagi tayanch kompetensiyalar muhim hisoblanadi:

1. Pedagogik kompetensiya: O'qituvchi o'z fanini yaxshi bilishi va uni samarali ravishda o'rgatish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.
2. Kommunikativ kompetensiya: O'qituvchi o'z fikrlarini aniq ifodalash, talabalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.
3. Ijtimoiy kompetensiya: O'qituvchi jamiyatda o'z o'rmini bilishi, hamkorlik qilish va jamoa ishlarida faol ishtirok etishi lozim.
4. Innovatsion kompetensiya: Zamonaviy ta'lif texnologiyalaridan foydalana olish va yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llash qobiliyati.

Tayanch Kompetensiyalarni Rivojlantirish usullari:

1. O'qituvchilarni malaka oshirish dasturlari: Ta'lif muassasalari o'qituvchilar uchun doimiy malaka oshirish kurslarini tashkil etishi, yangi pedagogik texnologiyalar va metodlarni o'rganish imkonini beradi.
2. Amaliy mashg'ulotlar: O'qituvchilar amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etish orqali tajriba orttiradilar va o'z bilimlarini mustahkamlashadi.
3. Mentorlik tizimi: Tajribali o'qituvchilar yangi boshlovchilarga yordam berish orqali ularga tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda ko'maklashishlari mumkin.
4. Zamonaviy ta'lif texnologiyalaridan foydalanish: Interaktiv ta'lif vositalari, onlayn platformalar va multimedia resurslari yordamida o'qituvchilar o'z darslarini yanada samarali o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Xulosa: Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyat samaradorligini oshirishda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish juda muhimdir. Bu nafaqat

o'qituvchilarning professional o'sishiga, balki ta'lif sifatining oshishiga ham xizmat qiladi. Zamoniaviy ta'lif texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar yordamida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini yanada samarali qilish mumkin. Shunday qilib, bo'lajak avlodni tarbiyalashda muvaffaqiyatga erishish uchun tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo'llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014.
2. Abdullayeva B. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining axborot kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan tayyorgarliginig mazmuni / Boshlang'ich ta'lifning dolzARB masalalari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Jizzax, 2019-yil – 6-b.
3. Rustamova N. Media ta'lif va media madaniyat (umumiyl o'rta ta'lif muassasalari misolida).– T.: "Turon zamin ziyo". 2016. – 131 b.
4. 4.Nosirova, D. (2023). BO'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O'QITUVCHILARI UCHUN "PEDAGOGIK MAHORAT" DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SHART-SHAROITI. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(6), 67-70.
5. 5.Nosirova, D. (2024). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun "pedagogik mahorat" darslarida raqamli texnologiyalar samaradorlikni oshirish vositasi sifatida. *Евразийский журнал академических исследований*, 4(4), 35-39.
6. 6.Abduraxmonova N.N. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish muammosining pedagogik zaruriyati // Science and innovation international scientific journal volume 1 Issue 8 UIF-2022: 8.2\ISSN:2181-3337.2114-2121 betlar.
7. <http://scientists.uz/view.php?id=3348http://scientists.uz/uploads/202208/B-432.pdf>
8. 7.Abdurakhmanova N.N. Structural and substantive features of improving the methodological preparation of future elementary school teachers for the intellectual development of students // The field of scientific research International scientific-online conference Part 4 November 30th Colletions of scientific works Warsaw 2022. / 115-121 betlar.
9. <https://interonconf.org/index.php/pol/article/download/646/607/595>